

PEDAGOGIK MULOQOT – O‘ZARO TA’SIR KO‘RSATISH VOSITASI**Fatullayeva Sitara Ilhom qizi****Intern-teacher of the department "Technological machines and equipment" of the
Bukhara Engineering-Technological Institute
fatullayeva1993@list.ru****<https://doi.org/10.5281/zenodo.13329668>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik takt talablariga amal qilgan o‘qituvchilarga muloqot uslubini shakllantirish, talabalar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishishini ta’minlash, ishontirish va uqtirish orqali talabalarga ta’sir kuchini singdirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: muloqot, takt, pedagogik muloqot, pedagogik takt, ishontirish, uqtirish, talaba, o‘qituvchi, muloqot jarayoni, pedagog.

O‘qituvchi va talabaning muloqot jarayoni talabalarda ikki xil hissiyot tug‘dirishi mumkin, faqat ijobiy hissiyotlangan muloqotgina haqiqiy tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Salbiy xissiyotlar esa, ta’sir ko‘rsatishning oqibat natijasi sifatida emas, balki ijobiy xissiy samaraga erishish yo‘lidagi xususiy hol sifatida sodir bo‘lishi mumkin. Tajribalarning ko‘rsatishicha, o‘qituvchida aynan pedagogik takt bo‘lganidagina, talabalar ijobiy hissiyotli muloqot va psixologik bog‘lanish o‘rnatishi mumkin.

Pedagogik takt talablariga amal qilgan o‘qituvchilarga o‘zida demokratik muloqot uslubini shakllantirish, talabalar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishishi mumkin. Takt so‘zini aynan ma’niosi-tegib turish, daxldor bo‘lish demakdir. U odamlar o‘rtasidagi munosabatlarini sozlab turuvchi ahloqiy toifadir. Insoniylik prinsipiga asoslangan holda taktli ahloq – eng murakkab xolatlarida ham inson xurmatini saqlashni talab etadi.

Taktli (odobli) bo‘lish-har bir inson, ayniqsa kamol topayotgan yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar uchun muhim axloqiy talabdir. Pedagogik takt o‘qituvchining professional sifati, pedagogik mahoratining muhim qismidir. Pedagogik taktning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat o‘qituvchi shaxsi xususiyatini (xushmuomalalik, talabani sevishtirish, xurmat qilish) anglash, balki talaba ko‘ngliga to‘g‘ri yo‘l topa olishini ham bildiradi.

Pedagogik takt – bu o‘qituvchining talabaga ta’sir etishi pedagogik jihatdan muvofiqlik o‘lchovi, eng samarali muloqot uslub o‘rnatishiga bog‘liqdir. Pedagogik takt talabalar bilan muloqotda haddan oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. O‘qituvchilik faoliyatini xarakterlab K.D.Ushinskiy shunday degan edi: «Maktabda hazilga yo‘l qo‘yuvchi, Lekin hamma ishni xazilga aylantirmaydigan – jiddiylik, faqat taltaytirmaydigan erkalatish, injiqsizlik – haqqo‘ylik, loqaydsizlik -xushmuomala, rasmiyatchiliksiz – tartib, eng muhimi domoq oqilona faoliyatda bo‘lishi kerak». Bunday ta’sir ko‘rsatish me’yori tarbiyaviy vositalardan foydalanishda ham namoyon bo‘ladi.

Tibbiyotdagi dorilar kabi o‘qituvchining so‘zi va metodi ham aniq o‘lchovga, foydalanish rejimiga ega bo‘lishi kerak. U yuqori samarali, zo‘ravonliksiz va oliyjanoblik bilan qo‘llashi zarur.

O‘qituvchini talabalar timsolida barcha talabalarni hurmat qiluvchi shaxsni ifodalashi zarur. Hurmatni anglagan talabada o‘z shaxsi qiymatini sezish hislari vujudga keladi, pedagogik ta’sirga berilmayotgan qaysarlarni moyillashtiradi – ularni tarbiyaviy jarayon qatnashchilariga aylantiradi.

Pedagogik takt darsning hamma bosqichlarida o'qituvchi uchun zarurdir. Ayniqsa, talabalar bilimni baholashda juda e'tiborli bo'lishi kerak. Bu takt - talaba javobini to'la eshitishda, ya'ni javob shakli va mazmuniga diqqat bilan e'tibor berishda, talaba adashganda vazminlik bilan to'zlashda, bahoni haqqoniy qo'yish va uni izohlab berishir.

Mohir o'qituvchilar hatto duduqlanib javob berayotgan talabani kamchiligini to'g'rilab boradilar. Taktsiz o'qituvchida esa, hatto qobiliyatli bola ham duduqlanib javob berolmasligi aniqlangan. Barcha talabalar, ularni diqqat va xurmat bilan tinglaydigan, javobni to'g'rilab, yo'llab turadigan o'qituvchiga javob berishni yoqtiradilar. Javob berayotgan talabaga jilmayish, imo-ishora, bosh qimirlatish bilan ma'qullab turish juda ahamiyatlidir.

O'qituvchining to'g'ri muloqot uslubini tanlashi, har qanday sharoitda pedagogik taktga amal qilishi, takomillashgan kommunikativ ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi. A.N.Leontyev kommunikativ malakalarga quyidagicha xarakteristika beradi:

- ✓ ijtimoiy perstepsiya yoki (yuzidan uqib olish) malakasini egallash;
- ✓ talabaning tashqi belgilariga xos ravishda uning shaxsi, psixik holati va boshqa xususiyatlarini modellash;
- ✓ talabalar bilan muloqot paytida vazmin bo'lishi;
- ✓ nutqni psixologik nuqtai nazardan eng maqsadga muvofiq qilib tuzish, ya'ni nutq muloqotining talabalar bilan nutqli va nutqsiz muloqot qilishni bilish.

Kishilarning o'zaro ta'sir etishdagi barcha vaziyatlar, asosan to'rtta o'zaro bog'liq munosabatlar orqali amalga oshiriladi: ishontirish, o'ziga rom qila olish, taqlid qilish, uqtirish.

Ishontirish – bu biror fikr yoki xulosani mantiqiy asoslashdir. Ishontirish suhbatdosh yoki guruh ongini o'zgartirib, ma'lum fikr (nuqtai nazarni) qo'llab-quvvatlaydigan va uning asosida faoliyat ko'rsatishni nazarda tutadi. So'z bilan ishontirish eng qiyin tarbiyaviy vositalardir. Bunda tinglovchilar fikrini o'zgartira oladigan mantiq yoki suhbat ohangini tanlash juda muhimdir.

Ichki taqlid qilishda kishining tashqi qiyofasi ham hisobga olinadi, Lekin ular tabiiydek tuyuladi. Axir biz ixtiyoriy kishi bilan muloqotda bo'lganimizda, uni xayolan ifodalay olishimizdan ko'proq ma'lumotni o'zimizga olamiz, va sezamiz. Ichki va tashqi taqlid qilishni bilish yosh o'qituvchiga o'z ustida ishlashga yordam beradi.

Uqtirish – bu bir kishini ikkinchi kishiga yoki kishilar guruhiga ruhiy ta'sir etishi bo'lib, unda so'z ifoda va fikrlarni hech qanday tanqid alomatsiz erkin tushuntiriladi. Fanda ta'kidlanganidek, uqtirishning mohiyatii tinglovchining so'zlovchiga nisbatan to'la ishonch bildirishdir. Bu holda so'zlovchi tinglovchida aynan o'zidagi tasavvur, qiyofa va sezgilarni gavgdalandiradi-yu natijada uning oldida to'la ishonch qozonadi.

Uqtirib ta'sir etishning asosiy shakli bir tomondan axborot mambai sozlovchining obro'ga ega bo'lishi, ikkinchi tomondan esa tinglovchida ishonch hosil qilishi, hech bo'lmaganda, ta'sir ko'rsatishga qarshilik bildirmasligiga erishishdir. Mana shunga amal qilgandagina uqtirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Uqtirish, kishilarning muloqotda o'zaro ta'sir etish jarayoni sifatida ixtiyoriy va ixtiyorsiz to'g'ridan-to'g'ri ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Pedagogik jihatdan to'g'ri qo'llangan uqtirish juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lishi mumkin.

Muloqot texnikasini bilish o'qituvchiga har bir vaziyatda o'z hatti-harakatlarini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. O'zaro ta'sir uchun tanlangan noto'g'ri pedagogik hatti-harakat yoki noto'g'ri muloqot shaklini qo'llanilishi, ya'ni muloqotga uni amalga oshirish

nuqtai nazardan tayyorlanmaganlik, o'qituvchi va talaba o'rtasida kelishmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Kommunikativ o'zaro ta'sir samaradorligini oshiruvchi quyidagi vositalarga to'xtalib o'tamiz: muloqotga moslashish mushaklarning safarbarligi, tashabbuskorlik, rollar pozitsiyasidan oqilona foydalanish, imo-ishora, har bir fikrni oldingisiga nisbatan balandroq tovush bilan boshlash, muloqotning ko'p qatlamligini e'tiborga olish.

Muloqotda bir tomondan tashabbusni qo'ldan bermaslik, ikkinchi tomondan esa muloqotdagi moslashishlar sistemasi orqali bu tashabbuskorlikni boshqarish, unga zarur kommunikativ vaziyat shaklini berish zarur. Xuddi shu ma'noda avtoritar tashabbus bolalar tashabbusini yaratuvchi demokratik yashirin avtoritarlik deb fikr yuritish mumkin.

Pedagogik muloqotning ko'p qatlamligini e'tiborga olish ham uning ta'sir ko'rsatish kuchini oshiruvchi vositadir. O'qituvchi bir vaqtning o'zida butun sinf bilan va har bir talaba bilan, talaba orqali esa butun sinf bilan muloqotda bo'ladi. Bir talaba bilan muloqotda bo'lgan holda o'qituvchi o'z e'tiborini to'la ana shu talabaga qaratib qo'yishi mumkin emas. Darsda alohida talaba bilan muloqotni shunday tashkil etish kerakki bundan boshqa barcha talabalar ham nazardan chetda qolmasligi zarur. Faqat shundagina muloqot, pedagogik muloqot jarayoni o'zviy va sistemaviy bo'ladi.

Pedagogik muloqot ijtimoiy psixologik o'zaro ta'sir ko'rsatishning jamoa sistemasini ifodalaydi. Shuning uchun muloqotni quyidagi yo'nalishlarda qatlamlarga ajratish mumkin:

- pedagogni alohida talaba bilan muloqoti;
- pedagogni alohida talaba orqali butun sinf bilan muloqoti
- butun sinf bilan bo'lgan muloqot;
- pedagogni butun sinf orqali alohida talaba bilan muloqoti.

Demak, yosh o'qituvchi o'zida har bir yangi pedagogik vaziyatga kommunikativ moslashuvlar sistemasini juda tez kirita olish malakalarini o'zida shakllantirish zarur. Ta'sir ko'rsatishning har bir metodi muloqotga moslashish sistemasi bilan birgalikda o'zgacha ohang, ahamiyat, kuch va yo'nalish kasb etadi.

Yuqoridagi barcha "psixologik" usullarning asosiy sharti – pedagoglik kasbiga qiziqish, bu kasbning mohiyatini tushunish, bolalarga muhabbat bo'lgandagina, qisqacha aytganda pedagog shaxsi professional-pedagogik yo'nalishiga ega bo'lgandagina yaxshi samara beradi.

References:

1. Kroeber A.L., Kluckhohn C., Untereiner W., Meyer A.G. Culture: A critical review of concepts and definitions // – New York: Vintage Books. 2021. – P. 97.
2. Lisetskii F., Terekhin E., Marinina O., Zemlyakova A. Worldwide trends in the development of education and academic research // Integration Strategies of Academic Research and Environmental Education. Procedia – Social and Behavioral Sciences. 2015. – P. 183-191.
3. Olimov, K. T., & Sh, T. Z. (2019). Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastenr European Scientific Journal, (2), 67-70.
4. Тухтаева, З. Ш. (2011). Межпредметные связи и преемственность в профессиональном образовании. Профессиональное образование. Столица, (9), 43-44.
5. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.

6. Sharifovna, T. Z., & Bakhriniso, T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12 Part II), 44-49.
7. Тухтаева, З. Ш. (2012). Методика межпредметной преемственности в профессиональном образовании.
8. Тухтаева, З. Ш. (2016). Касб-хунар таълимида фанлараро узвийликни таъминлаш методикаси.
9. Тухтаева, З. Ш., & Искандарова, Г. Б. (2014). Обеспечение межпредметной преемственности при обучении специальным предметам. Молодой ученый, (8), 882-884.

